

JINOYAT PROTSESSI ISHTIROKCHILARI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH CHOG'IDA OLINGAN

DALILLAR MAQBULLIGI

Ibrohimova Durdonaxon Otabek qizi
Toshkent davlat yuridik
universiteti Jinoiy odil sudlov fakulteti 4-bosqich talabasi
Toshkent, O'zbekiston Respublikasi
Telefon raqam: +99890 317 47 25

Annotatsiya:

Ushbu maqolada jinoyat protsessida dalillarni ta'minlash va jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash masalalari o'zaro bog'liq huquqiy institutlar sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotda dalillarning qonuniy va maqbul tarzda olinishi sud adolatini ta'minlashning muhim sharti ekani asoslanadi. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni hamda Oliy Sud Plenumi qarorlari normalari ilmiy-huquqiy jihatdan o'rganiladi. Maqolada protsess ishtirokchilarining xavfsizligi buzilgan holda olingan dalillarning nomaqbul deb topilishi va ularning yuridik oqibatlarini yoritilgan. Shuningdek, dalillarni yig'ish, saqlash va baholash jarayonida yuzaga kelayotgan amaliy muammolar, jumladan kadrlar malakasi, texnik ta'minot va raqamli dalillarni himoyalash masalalari tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: jinoyat protsessi, dalillarni ta'minlash, dalillar maqbulligi, protsess ishtirokchilari xavfsizligi, nomaqbul dalillar, protsessual kafolatlar, raqamli dalillar.

THE ADMISSIBILITY OF EVIDENCE OBTAINED IN ENSURING THE SAFETY OF PARTICIPANTS IN CRIMINAL PROCEEDINGS

Ibrohimova Durdonakhon Otabek kizi
4th-year student, Faculty of Criminal Justice
Tashkent State University of Law
Tashkent, Republic of Uzbekistan
Phone number: +99890 317 47 25

Annotation:

This article analyzes the issues of evidence preservation and the protection of participants in criminal proceedings as interrelated legal institutions. The study substantiates that obtaining evidence in a lawful and admissible manner is a key prerequisite for ensuring judicial fairness. The provisions of the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan, the Law on the Protection of Victims, Witnesses and Other Participants in Criminal Proceedings, as well as the resolutions of the Plenum of the Supreme Court, are examined from a legal and scholarly perspective. Particular attention is paid to the inadmissibility of evidence obtained in violation of participants' security guarantees and its legal consequences. In addition, practical challenges related to evidence collection, storage and evaluation, including personnel qualifications, technical support and protection of digital evidence, are analyzed, and relevant recommendations are proposed.

Keywords: Criminal procedure, evidence preservation, admissibility of evidence, protection of participants, inadmissible evidence, procedural safeguards, digital evidence.

ДОПУСТИМОСТЬ ДОКАЗАТЕЛЬСТВ, ПОЛУЧЕННЫХ ПРИ ОБЕСПЕЧЕНИИ БЕЗОПАСНОСТИ УЧАСТНИКОВ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА

Иброхимова Дурдонахон Отабек кизи
Ташкентский государственный юридический университет
Факультет уголовного правосудия, 4 курс
Ташкент, Республика Узбекистан
Тел.номер: +99890 317 47 25

Аннотация:

В данной статье рассматриваются вопросы обеспечения доказательств и защиты участников уголовного процесса как взаимосвязанных правовых институтов. Обосновывается, что получение доказательств законным и допустимым способом является важнейшим условием обеспечения судебной справедливости. Анализируются нормы Уголовно-процессуального кодекса Республики Узбекистан, Закона «О защите потерпевших, свидетелей и других участников уголовного процесса», а также постановления Пленума Верховного суда. Особое внимание уделяется признанию недопустимыми доказательств, полученных с нарушением гарантий безопасности участников процесса, и их правовым последствиям. Также рассматриваются практические проблемы сбора, хранения и оценки доказательств, включая уровень профессиональной подготовки кадров, техническое обеспечение и защиту цифровых доказательств, и предлагаются научно-практические рекомендации.

Ключевые слова: уголовный процесс, обеспечение доказательств, допустимость доказательств, безопасность участников процесса, недопустимые доказательства, процессуальные гарантии, цифровые доказательства.

Jinoyat protsessida dalillarni ta'minlash masalasi har doim dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelgan. Nafaqat jinoyat protsessida balki boshqa yo'nalishlarda ham ya'ni fuqarolik protsessida ham ayni dolzarb mavzu hisoblanadi. Sababi dalillar ushbu yuqoridagi jinoyat hamda fuqarolik protsessining yuragi sanalib, dalillarsiz biror bir protsesni to'laligicha, qonuniy tartibda hal qilish imkonsiz bo'lishligiga olib kelishi mumkin. Shu sababdan dalillar masalasiga har yerda jiddiy e'tibor talab qilinadi.

Shuningdek, dallilarni ta'minlash bir alohida mavzu bo'lsa, jinoyat protsessi ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlash alohida mavzu hisoblanib, ikkalasini umumlashtirganda bir ushbu ikkala mavzuning amaliyotga to'liq tadbiiq etsa bo'ladigan, hamda hozirgi paytda foydalanib kelinayotgan qorishmasi paydo bo'ladi.

Jumladan, jinoyat protsessi ishtirokchilari xavfsizligi muammosi juda dolzarbdir, chunki jinoiy protsessual faoliyat vazifalarini amalga oshirish to'g'ridan to'g'ri, shu jumladan jinoiy ishlar bo'yicha odil sudlovni amalga oshirishga yordam beradigan shaxslarning ishtiroki uchun qonuniy tartibga solish

va xavfsiz sharoitlarni amaliy ta'minlashga bog'liq¹. **O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 18-moddasida**, jinoyat ishini yuritish uchun mas'uliyatli barcha davlat organlari va mansabdor shaxslar jinoyat protsessida qatnashayotgan fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishlari shart prinsipi sifatida belgilanadi. Bundan shuni tushunish mumkinki, ishtirokchilar xavfsizligi bu dolzarb masala. O'zbekiston Respublikasida birinchi marta jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash masalalari O'zbekiston Respublikasining 14.01.2019-yildagi "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"² gi qonuni qabul qilingan. Ushbu normativ hujjatda jinoyat protsessida shaxs xavfsizligi asoslarini tartibga soluvchi xalqaro normalar bilan O'zbekiston Respublikasi huquqiy musobatlariga moslashtirildi. Shunday qilib, jinoyat protsessi ishtirokchilariga nisbatan qo'llaniladigan, xavfsizlik choralari odatda protsessual (O'zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual qonunchiligida mustahkamlangan) va protsessual bo'lmagan "jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish" qonunida belgilangan. Shu bilan birga, ushbu yuqoridagi qonun asosida ishlab chiqilgan **Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 21-fevraldagi 103-sonli "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilishni ta'minlash tartibi to'g'risida"gi** nizomni tasdiqlash haqida ham normativ hujjat mavjud bo'lib, unda faqatgina O'zbekiston Respublikasining ga muvofiq jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessi boshqa ishtirokchilarining ijtimoiy himoyasini ta'minlashga qaratilgan bir yo'la beriladigan nafaqani tayinlash va to'lash tartibi belgilangan.

Jinoyat protsessi ishtirokchilari toifasiga aniqlik kiritib ketadigan bo'lsak, Jinoyat protsessual kodeksiga asosan, jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar, jinoyat ishini yuritishda ishtirok etuvchi jamoat birlashmalari, jamoalar va ularning vakillari hamda eng asosiysi jinoyat protsessida o'z manfaatlarini himoya qiladigan shaxslar, himoyachilar va vakillar kiradi. Ushbu yuqoridagilardan himoya qilinuvchi shaxslar "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi **Qonunining 4-moddasiga asosan** quyidagilardan iborat:

- jabrlanuvchi va uning qonuniy vakili;
- guvoh;
- jamoat ayblovchisi va jamoat himoyachisi;
- gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, ularning himoyachilari va qonuniy vakillari;
- mahkum, oqlangan shaxs, o'ziga nisbatan jinoyat ishi tugatilgan shaxs;
- fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari;
- ekspert, mutaxassis, tarjimon va xolis.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan shaxslarning oila a'zolari va yaqin qarindoshlari ham himoya qilinuvchi shaxslar bo'lishi mumkin.

Himoya qilish choralari jinoyat ishi qo'zg'atilguniga qadar arizachiga, jinoyat shohidiga yoki jinoyatning oldini olishga yoxud uni fosh etishga ko'maklashuvchi shaxslarga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin³.

Shuningdek, xavfsizlik choralari esa quyidagilar misol bo'la oladi ya'ni:

¹ https://oriens.uz/media/journalarticles/46_Sh.X.Mamataliyeva_313-320.pdf

² O'zbekiston Respublikasining 14.01.2019-yildagi "jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida" gi qonun.

³ O'zbekiston Respublikasining 14.01.2019-yildagi "jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida" gi qonun.

- 1) himoya qilinuvchi shaxs to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash;
- 2) shaxsni, uy-joyini va boshqa mol-mulkni qo'riqlash;
- 3) himoya qilinuvchi shaxsga maxsus individual himoya vositalarini va texnik vositalarni berish;
- 4) vaqtinchalik xavfsiz joyga joylashtirish;
- 5) boshqa yashash joyiga ko'chirish, ish (xizmat) yoki o'qish joyini o'zgartirish;
- 6) hujjatlarni almashtirish;
- 7) himoya qilinuvchi shaxs to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanilishini cheklash;
- 8) qamoqda yoki jazoni o'tash joylarida saqlanayotgan himoya qilinuvchi shaxsga nisbatan qo'shimcha xavfsizlik choralari ta'minlash.

Ushbu modda birinchi qismining 6 va 7-bandlarida nazarda tutilgan xavfsizlik choralari faqat og'ir va o'ta og'ir jinoyat ishlari bo'yicha zarur bo'lgan hollarda amalga oshiriladi.

Yuqorida dastlab ishtirokchilar xavfsizligi masalasi o'rin olgan bo'lsa endi esa dalillar masalasiga to'xtalib o'tamiz. Dalillar – bu har qanday ishning qonuniy va asosli hal qilinishiga imkon beruvchi yagona manba bo'lib, ular ishonchli va qonuniy yo'l bilan olingan, protsess ishtirokchilari huquqlari buzilmagan holda olingan bo'lishi lozimligi, shu sababdan dalillarni yig'ish, tekshirish va baholash jarayonida eng asosiy ishtirok etadiganlardan tezkor-qidiruv xodimlari qonuniylik tamoyiliga qat'iy rioya etilishi zarurligi, sababi, **jinoyat-protsessual kodeksining 18-moddasiga binoan** jinoyat ishini yuritish uchun mas'uliyatli barcha davlat organlari va mansabdor shaxslar jinoyat protsessida qatnashayotgan fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishlari shartligi Hech kim sud qaroriga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emasligi, sud va prokuror qonunga xilof ravishda ozodlikdan mahrum etilgan yoki qonun yoxud sud hukmida nazarda tutilganidan ortiq muddat hibsdan ushlab turilgan yoki qamoqda saqlangan yoxud uy qamog'ida bo'lgan har qanday shaxsni darhol ozod qilishi shartligi, fuqarolarning shaxsiy hayoti, ularning turar joylari daxlsizligi, o'zaro yozishmalari, telegraf aloqalari va telefon orqali so'zlashuvlarining sir saqlanishi qonun bilan qo'riqlanishi, shaxs egallab turgan turar joy yoki boshqa bino va hududda tintuv o'tkazish, olib qo'yish, ko'zdan kechirish, aloqa muassasalarida pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yish va ularni olib qo'yish, telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish faqat ushbu Kodeksda belgilangan hollarda va tartibda amalga oshirilishi mumkinligi, Ishni yuritish jarayonida shaxsning huquq va erkinliklarini buzish oqibatida unga yetkazilgan zarar ushbu Kodeksda belgilangan asoslar va tartibda undirilishi lozimligi keltirib o'tilgan⁴. Shu munosabat bilan agarda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan qonun normalarini aniq bajarishdan va unga rioya qilishdan har qanday chekinish, u qanday sababga ko'ra yuz berganligidan qat'iy nazar, shu yo'l bilan olingan dalillarning maqbul emas (yaroqsiz) deb topilishiga olib keladi. Nomaqbul dalillar yuridik kuchga ega bo'lmay, ulardan **JPK 82 — 84-moddalarida** nazarda tutilgan holatlarni isbotlash uchun foydalanish hamda ularni ayblov asosiga qo'yish mumkin emas⁵. Qonunga xilof usullar orqali yoki jinoyat protsessi ishtirokchilarini qonun bilan kafolatlangan huquqlaridan ya'ni qisqacha qilib aytganda ularni xavfsizligidan mahrum qilish yoki bu huquqlarni cheklash yo'li bilan yoxud JPK talablari buzilgan holda olingan dalil deganda — JPK 88, 90, 92 — 94-moddalarida nazarda tutilgan shartlarga muvofiq bo'lmagan va Qonunning boshqa talablari buzilgan

⁴ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. Elektron manba: www.lex.uz

⁵ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 24.08.2018 yildagi "Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarori

holda olingan har qanday faktik ma'lumotlar tushuniladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining **24.08.2018 yildagi "Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorining 6-bandiga ko'ra**, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining himoyaga bo'lgan huquqlari, jumladan quyidagi hollarda **buzilgan hisoblanadi**, agar:

protsessual harakatda qonunga ko'ra himoyachi ishtiroki shart bo'lib, dalil surishtiruv, dastlabki tergov organi yoki sud tomonidan uning ishtirokisiz olingan bo'lsa;

gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchiga uning himoyaga bo'lgan huquqi tushuntirilmagan yoki bu huquqdan foydalanish imkoniyati amalda ta'minlanmagan bo'lsa.

Shuningdek, Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining himoyaga bo'lgan huquqlari buzilishi masalasiga oid batafsil tushuntirishlar O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining **"Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta'minlashga oid qonunlarni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"** 2003-yil 19-dekabrda 17-sonli qarorida berilgan.

Bundan tashqari yuqoridagi **qarorning 10-bandida** jinoyat to'g'risidagi ariza, xabar bilan birga taqdim etilgan hujjatlar, predmetlar (narsalar), elektron ma'lumotlar, fotosuratlar, audio-, videoyozuvlar faqat ushbu materiallarni taqdim etgan shaxslar, ish qo'zg'atilgandan keyin so'roq qilingan va taqdim etilgan hujjatlar, predmetlar (narsalar), elektron ma'lumotlar kim tomonidan, qachon, qayerda, qanday holatlarda topilganligi yoki fotosurat, audio-, videoyozuvlar amalga oshirilganligi aniqlangan holdagina maqbul dalil sifatida foydalanilishi mumkinligi, taqdim etilgan predmetlar (narsalar), elektron ma'lumotlarni maqbul dalil deb topishning zarur sharti ularni ko'zdan kechirish to'g'risidagi bayonnoma tuzilganidan so'ng chiqariladigan, predmetlar (narsalar), elektron ma'lumotlarni ishga ashyoviy, yozma va raqamli dalil sifatida qo'shish to'g'risidagi qaror (ajrim)ning mavjudligi hisoblanishligi, zarur hollarda hujjatlar, predmetlar (narsalar), elektron ma'lumotlar, fotosuratlar, audio-, videoyozuvlarni ashyoviy, yozma va raqamli dalil sifatida ishga qo'shish masalasini hal etish uchun tegishli ekspertiza tayinlanishi mumkinligi bayon qilib o'tilgan.

Solishtirib ketadigan bo'lsak, jinoyat protsesida dalillarni ta'minlash HMQ organlar va sud tomonidan amalga oshiriladigan bo'lsa, Fuqarolik-protsessual qonunchilik normasida bu nafaqat HMQO va sud organlari tomonidan balki notariuslar tomonidan ham amalga oshirilishi keltirib o'tilgan.

Jumladan, **O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik-protsessual kodeksining 76-moddasida** o'zlari uchun zarur bo'lgan dalillarni keyinchalik taqdim etish mumkin bo'lmay qoladi yoki qiyinlashadi, deyishiga asosi bo'lgan shaxslar ariza berishidan oldin ham yoki keyin ham suddan bu dalillarni ta'minlashni iltimos qilishi mumkinligi, ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudgacha bo'lgan jarayonda **notarial tartibda** dalillarni ta'minlash choralarini ko'rishga haqliligi, chet davlatlar organlarida ish yuritish uchun zarur bo'lgan dalillarni ta'minlash qonunda belgilangan tartibda notariuslar tomonidan amalga oshirilishi mumkinligi qat'iy belgilab qo'yilgan.

Shu bilan birga yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, ushbu jinoyat protsessi ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlash chog'ida olingan dalillar maqbulligi masalasida bir qancha amaliy muammolar ham mavjud bo'lib, bu tez-tez ko'zga tashlanmoqda. Jumladan, protsessual harakatlarni amalga oshiruvchi xodimlarning malakasi yetarli emasligi, protsessual xodimlarning malakasi — dalillarni yig'ish va himoyalashda tezkor-qidiruv va tergov xodimlarining huquqiy hamda texnik tayyorgarligi muhim hisoblanadi. Davlat organlarida doimiy o'quv-seminarlar, axborot-materiallar va amaliy mashg'ulotlar tashkil etilishi lozim. Bundan tashqari, texnika, texnologiyadan foydalanishdagi qiyinchiliklar, texnik jihozlash va IT-himoya — dalillarni, xususan raqamli dalillarni to'g'ri saqlash va

taqdim etish uchun xavfsiz serverlar, zaxira nusxalar, shifrlash va jurnalizatsiya tizimlari kerak. Raqamli dalillar uchun chain of custody (egalik zanjiri)ni hujjatlashtirish jahon tajribasida majburiy sanaladi. Koordinatsiya va muvofiqlik — tergov, prokuratura, sud va ijtimoiy himoya organlari o'rtasida kelishilgan protokollar bo'lishi kerak. Jumladan, JPK, "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida" gi qonuni va Oliy Sud Plenumi qarorlari amaliyotda bir-biri bilan uyg'un ishlashi zarur. Shuningdek, maxfiylik va axborot tarqatish siyosati — ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda guvohlar yoki jabrlanuvchilarning ma'lumotlari tarqalishini oldini olish uchun rasmiy axborot siyosati ishlab chiqilishi lozim. Bu bilan jarayonga bo'lgan ishonch oshadi va dalillarni ta'minlashga aralashuvning oldi olingan bo'ladi va shu bilan birga eng asosiysi, huquqiy mexanizmlarni mustahkamlash zarur bo'lib, dalillarni noqonuniy egallash yoki hujjatlarni soxtalashtirish holatlari uchun qat'iy protsessual va jinoyat javobgarligi choralari amaliyotga joriy etilishi kerak.

Shu bilan birga, maqbul emas deb topilgan ayrim dalillarni, ularning yuridik tabiatiga ko'ra, tiklashning imkoniyati yo'q (masalan, qonunga muvofiq roziligi olinishi shart bo'lgan hollarda jabrlanuvchini, guvohni uning roziligini olmasdan takroran so'roq qilish, shaxsni yoki narsani tanib olish uchun takroran ko'rsatish va h.k.) bo'lib, bu isbot qiluvchi subyektni muayyan holatni tasdiqlovchi vosita sifatida mazkur dalilga tayanish huquqidan mahrum etishiga olib keladi.

Ish bo'yicha har qanday qaror qabul qilishda, shu jumladan ayblov dalolatnomasi, ayblov xulosasi va hukmda maqbul emas dalillarga asoslanish mumkin emas⁶.

Jinoyat protsessida ishtirokchilarning xavfsizligini ta'minlash bilan birga dalillarni qonuniy va ishonchli tarzda to'plash — sud adolati va jamiyat huquqiy barqarorligining muhim sharti hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining shu yo'nalishdagi qonunlari va Oliy Sud Plenum qarori kabi normativ hujjatlar mazkur sohada zaruriy asoslarni belgilab berdi; ammo amaliyotda protsessual me'yorlarga qat'iy rioya etish, texnik va kadr jihatdan mustahkamlash hamda huquqiy kafolatlarni takomillashtirish doimiy e'tibor talab qiladi. Ushbu maqolada ko'rsatib o'tilgan tamoyillar va tavsiyalar — dalillar maqbulligini saqlab qolgan holda ishtirokchilar xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan amaliy yo'nalishlar hisoblanadi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023 (amaldagi tahrir).
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – Toshkent: Adolat, amaldagi tahrir.
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik-protsessual kodeksi. – Toshkent: Adolat, amaldagi tahrir.
4. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 14-yanvardagi
5. "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida" gi Qonuni.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 21-fevraldagi
7. 103-sonli qarori
8. "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilishni ta'minlash tartibi to'g'risida" gi nizomni tasdiqlash haqida.
9. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018-yil 24-avgustdagi

⁶ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 24.08.2018 yildagi "Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida" gi qarori

10. "Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2003-yil 19-dekabrdagi
12. 17-sonli qarori "Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta'minlashga oid qonunlarni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida".
13. Xudoyberganov A.A. Jinoyat protsessida shaxs huquqlarini himoya qilish muammolari. – Toshkent, 2019.
14. Mirzaev B.X. Jinoyat protsessida dalillar va ularning maqbulligi. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020.
15. https://oriens.uz/media/journalarticles/46_Sh.X.Mamataliyeva_313-320.pdf